ACUMEN: INTERNATIONAL JOURNAL OF MULTIDISCIPLINARY RESEARCH
ISSN: 3060-4745 IF(Impact Factor)10.71 / 2025 Volume 3, Issue 11

MUDATI O‘TGAN VA FOYDALANISHGA YAROQSIZ DORILARNI QAYTA ISHLAB CHIQARISH

Amonova Zulayxo

Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali O‘qituvchisi.

Qurbonmurodov Shohrux

Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali talabasi.

Anotatsiya. Ushbu ilmiy ish dorixonalar shuningdek aholi qatlamidagi mudati tugagan dori vositalarini qayta ishlab chiqarish haqida Muddati o‘tgan dori vositalarini utilizatsiya qilish muammosi anchadan buyon o‘z yechimini topa olmayapti. Aksariyat odamlar eskirgan dori-darmonlarni o‘zlariga qanday zarar yetkazishi haqida o‘ylamasdan chiqindiga tashlab yuborishadi. Muddati o‘tgan dorilarni dorixonalar orqali utilizatsiya qilish mumkin, bu aksariyat mamlakatlarda allaqachon amalga oshirilmoqda. Ammo farmatsevtlarning 80 foizi bunday majburiyatlarni o‘z zimmasiga olishga tayyor emas, deydi “Farma RF” hamjamiyati o‘tkazilgan so‘rov natijalariga tayanib. Aynan Utilizatsiya tizimidagi kamchiliklar sabab va ular tashlab yuborilgan taqdirda tabiatga Zarar keltirishi, shu bilan birga muddati o’tgan dorilar qayta dori ishlab chiqarish uchun tayyor va toza substansiya hisoblanadi. Albatta muddati o’tagan dorilar ham qachondir va qanchadir mablag’ evaziga ishlab chiqarilgan, import qilingan sotib olingan. Qayta ishlab chiqarish esa shu xarajatlarni qisqartiradi.

Kalit so’zlar. Utilizatsiya , qayta ishlash, dori-darmon MCHJ, substansiya, “qayta ishlash tehnologiyasi”, farm zavodlar.

Asosiy qism

Jahon davlatlari dorilarni qanday utilizatsiya qiladi?

Ayrim davlatlarda allaqachon, aholidan dori-darmonlarni yig‘ish va utilizatsiya qilish bo‘yicha tizim yo‘lga qo‘yilgan. Odatda, bu tizimda davlat, dorixonalar va farmatsevtika kompaniyalari ishtirok etadi. Misol uchun, 12 million aholiga ega Belgiya mamlakatida yiliga 700 tonna muddati o‘tgan dori vositalari utilizatsiya qilinadi. Norvegiya, Fransiya, Niderlandiya, Italiya, Shveysariya va AQSHda

farmatsevtika chiqindilari davlat dorixonalariga qaytariladi. O'zbekiston hududidagi dorixonaning ayrimlari o'zi mustaqil ravishda yuq qilishi ma'lum buldi

Nega qayta ishlanmaydi

Mudati o'tgan va foydalanishga yaroqsiz dep topilgan dori moddalari tizimli ravishda qayta ishlanmaydi, ya'ni aynan bir qonuniyat asosida ishlamaydi. Deylik viloyatlardagi dori-darmon MCHJ larda mahsus foydalanishga yaroqsiz, Shubha ostiga olingan, muddati o'tgan dori vositalarga ajratilgan karantin zonalari mavjud. Mana shu bo'limga tushgan dori moddalar farm kamitit tomonidan tekshiriladi va ko'rib chiqiladi. Agar dori qo'llanish muddati tugagan bo'lsada qayta qadoqlanib foydalanishga topshirilishi mumkin agar talabga javob bermasa utilizatsiya qilinadi ya'ni MH ga asosan dori modda yuq qilinadi.

Muddati o‘tgan dorilarning xavfliligini tasdiqlovchi klinik tadqiqotlar o‘tkazilmagan. Biroq quyidagi dorilarni yaroqlilik muddati o‘tgandan keyin qabul qilib bo‘lmaydi.

*Insulin***.** Qandli diabetda qonda shakar darajasini nazorat qilish uchun ishlatiladi. Preparat kimyoviy tarkibini o‘zgartirishi mumkin va hech bo‘lmaganda yordam bermaydi.

Nitroglitserin. Ochilgach, nitroglitserin tezda samaradorligini yo‘qotadi.

Biologik preparatlar. Bu toifaga, xususan, vaksinalar, immunoglobulinlar, toksoidlar kiradi. Ularning faol moddalari ham tezda yo‘q bo‘ladi.

*Tetratsiklin guruhidan antibiotiklar***.** Ba'zi ma'lumotlarga ko‘ra, yaroqlilik muddati tugagandan so‘ng ular zaharli metabolit ishlab chiqarishi mumkin.

Suspenziya shaklidagi antibiotiklar. Yaroqlilik muddati tugagandan so‘ng ular yaroqsiz bo‘lib qolish ehtimoli yuqori.

Ko‘z tomchilari, burun spreyi va boshqa preparatlar. Vaqt o‘tishi bilan konservantlar parchalanadi, ya'ni bakteriyalar eritmada ko‘paya boshlaydi.

Inyeksiya shaklidagi dorilar. Shprisning tarkibi tashqi ko‘rinishini o‘zgartirmagan bo‘lsa ham, eritma xiralashgan, rangi o‘zgargan yoki unda cho‘kma paydo bo‘lgan bo‘lsa, inyeksiyadan bosh tortish kerak.

Yuqoridagi ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki asosan suyuq dori shakllari muddati utgandan keyin tez buzilish xususiyatiga ega deb qarashimiz mumkin. Tabletkalar va kapsula shaklidagi dori vositalar esa aksincha ;agar ular mukamal sharoitda saqlansa

uzoq vaqt xizmat qiladi.AQSH Mudofaa vazirligi. 1986-yilda FDA bilan birgalikda shoshilinch tibbiy yordam dorixonalarida saqlanadigan dori-darmonlarni yangilash zarurati bilan bog‘liq xarajatlarni tejash dasturi bo’icha 2006-yilda SLEP ideal sharoitlarda saqlanadigan 122 xil dori-darmonlarni sinovdan o‘tkazdi. Ularning ko‘pchiligining saqlash muddati uzaytirildi. Dori vositalarining barqarorligi belgilangan yaroqlilik muddatidan oshib ketgan, taxminan to‘rt yil davomida.

Qayta ishlab chiqarishning tizimli yo’lga quyilmaganligini sababi qayta ishlab chiqarishning tehnologioyasi yaratilmagan, va yana shu bilan birga dori moddalarning mikroorganizmlar bilan zararlanishi yani pirogen ifloslanish bo’ladi. Ularni qayta ishlab chiqarishda mikroorganizmlardan tozlashda dorivor moddalar buzilib ketishi mumkin.

Qayta ishlab chiqarishda qanday afvzaliklar bor

Qayta ishlab chiqarish eng avvalo iqtisodiy tomonlama juda kata foyda olib keladi. Aynan O‘zbekiston miqiyosida olib qaraydigan bo‘lsak farm korxonalar so‘ngi yillarda yaxshigina ko‘paydi; lekin ularning ko’pchiligi dori preparatlar tarkibidagi substansiyani chet davlatlardan olib kelib qadoqlaydigan korxonalar hisoblanasi. O‘zbekiston hududida substansiya ishlab chiqaruvchi korxonalar soni juda kam. Shuning uchun mudati o‘tgan dori vositalari tayyor substansiya hisoblanadi, albatta hammasi hammasi ham emas. Shu bilan bir qatorda o‘zbekiston har yili oziq ovqat mahsulotlariga qaraganda qarib 3 barobar ko’p dori darmon importi uchun mablag’ sarflaydi, buning Ichida ishlab chiqarishning ham ta’siri borligini unutmasligimiz kerak. Ekologik nuqtai nazardan olib qarasak ham utilizatsiya qilishda deylik kanalizatsiya orqali yana tabiatga qaytashi, yoki yuqori haroratda yoqish orqali atmosferaga zararli gazlar chiqarishi mumkin. Dorilarni yoqish orqali utilizatsiya qilishda juda katta issiqlik energiyasi talab qilinadi. Yaroqsiz dep topilgan dori moddalardan shu dori moddani tuliq qayta ishlash imkoni bo’lmasada eng kamida qandaydir tarkibiy qismni ajratib olish imkoniyati mavjud bo’lishi mumkin.

Qayta ishlab chiqarishni tizimli yo’lga quyish

Qayta ishlab chiqarishni tizimli yulga quyish uchun birinchi navbatda ”qayta ishlash tehnologiyasi” kerak bo’ladi va bu albatta poydevor bo’lib xizmat qiladi. Keyingi o’rinlarda mudati o’tgan va foydalanishga yaroqsiz dep topilgan dorilarni dorixonalardan va poliklinikalarning ichki dorixonalaridan viloyatdagi Dori-darmon MCHJ larga topshirishlari ta’minlanadi. So’ng o’sha yerning uzida dori moddalar tarkibi o’rganiladi, va qayta ishlatishga loyiq dep topilgan holda qatyta ishlashga

yuboriladi. Endi mana shu joyda bir kamchilik bor O'zbekistonda barcha dori turlari ishlab chiqarilmaydi shu sababli turli dori moddalardan substansiya oladigan kichik zavodlar qurishga tug'ri keladi.

Xulosa. Iqtosodiy tomondan olib qaraydigan bo'lsak dori moddalarni qayta ishlash yaxshigina foyda keltiradi. Ayniqsa O'zbekiston ko'p dorilarni chet mamlakatlardan import qilishini va substansiya tayyorlovchi farm zavodlar deyarli juda kamligini hisobga oladigan bo'lsak dori moddalarning qayta ishlab chiqarilishi iqtisodiy tomonlama albatta o'zini oqlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sodiqova G.E. Farmatsevtika iqtisodiyoti. Darslik. – Toshkent: IBN-SINO, 2022.
2. Toshmuxamedov E.R., Zaynutdinov X.S., Ziyayev R.Z. va boshqalar. Farmatsevtika iqtisodiyoti. Darslik. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2008.
3. Toshmuxamedov E.R., Zaynutdinov X.S., Komilov A.M. va boshqalar. *Farmatsevtika ishini tashkil qilish.* Darslik. – Toshkent: Iqtisod-moliya, 2008.
4. O'zbekiston Respublikasi Davlat farmakopeyasi. *Dori vositalarining sifatini nazorat qilish bo'yicha umumiy talablar.*
5. Mahmudjanova K.S., Shodmooova Sh.N., Shorahimova M.M., Rizayeva M.M Farmatsevtik tehnologiya.